Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS/PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 24-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI ASOSIY MAZMUNI

MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi
E-mail: misirovasliddin@gmil.com
OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
E-mail: sabrinaoyyarikova@gmail.com
RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi,
E-mail: Hanarustamova707@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy mohiyati, mazmuni va asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Xususan, xalqaro savdo munosabatlari, eksport va import operatsiyalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro iqtisodiy hamkorlik hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarish samaradorligi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, eksport, import, tashqi savdo, xorijiy investitsiyalar, xalqaro hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются экономическая сущность, содержание и основные направления внешнеэкономической деятельности. В частности, анализируются международные торговые отношения, экспортно-импортные операции, привлечение иностранных инвестиций, международное экономическое сотрудничество и значение развития внешнеэкономических связей для национальной экономики. Также раскрывается роль внешнеэкономической деятельности в обеспечении экономического роста, повышении эффективности производства и конкурентоспособности страны на международном рынке.
Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, международные экономические отношения, экспорт, импорт, внешняя торговля, иностранные инвестиции, международное сотрудничество, экономическая интеграция, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the economic essence, content, and main directions of foreign economic activity. In particular, it analyzes international trade relations, export and import operations, foreign investment attraction, international economic cooperation, and the importance of developing foreign economic relations for the national economy. The article also highlights the role of foreign economic activity in promoting economic growth, improving production efficiency, and strengthening a country's competitiveness in the international market.
Keywords: foreign economic activity, international economic relations, export, import, foreign trade, foreign investment, international cooperation, economic integration, competitiveness.

KIRISH

Bugungi globallashuv va jahon iqtisodiyotining o‘zaro integratsiyalashuvi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishi, xalqaro savdo hajmining ortishi, xorijiy investitsiyalar oqimining kuchayishi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining xalqaro miqyosda rivojlanishi tashqi iqtisodiy faoliyatning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu sababli har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, xalqaro bozorlarda munosib o‘rin egallash va tashqi iqtisodiy hamkorlikni

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.Tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakatning boshqa davlatlar bilan amalga oshiradigan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uning asosiy yo'nalishlariga tovar va xizmatlar eksporti hamda importi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi, texnologiyalar almashinuvi va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish kiradi. Mazkur faoliyat mamlakatda ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va milliy mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda tashqi savdo munosabatlarini erkinlashtirish, eksport salohiyatini oshirish, import operatsiyalarini takomillashtirish, xorijiy investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlash, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va iqtisodiyotning jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, xalqaro bozorlardagi kuchli raqobat, transport-logistika xarajatlari, bojxona tartib-taomillari, valyuta kurslarining o'zgarishi, tashqi bozorlardagi talab va taklif beqarorligi korxonalar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni chuqur o'rganish, uning iqtisodiy mazmuni va asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur maqolaning maqsadi tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy mohiyati va asosiy mazmunini ochib berish, uning tarkibiy yo'nalishlarini o'rganish hamda milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning nazariy asoslarini o'rganish, eksport-import munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish, xorijiy investitsiyalar va xalqaro iqtisodiy hamkorlikning o'rnini aniqlash hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning asosiy omillarini baholash vazifalari belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tashqi iqtisodiy faoliyatning nazariy va amaliy jihatlari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, A. Smit va D. Rikardo tomonidan ilgari surilgan mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari xalqaro savdoning shakllanishi hamda mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. E. Xeksher va B. Olin tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasida mamlakatlarning xalqaro savdodagi ixtisoslashuvi mehnat, kapital va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqligi asoslab berilgan.

P. Krugman va M. Obstfeld xalqaro iqtisodiyotga oid tadqiqotlarida xalqaro savdo, savdo siyosati, valyuta munosabatlari va iqtisodiy integratsiya masalalarini yoritgan. Ularning ilmiy qarashlari tashqi iqtisodiy faoliyatni eksport va import operatsiyalaridan tashqari, mamlakatlar o‘rtasidagi keng qamrovli iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida o‘rganish imkonini beradi.

O‘zbekistonlik olimlardan A.M. Alimov va I.A. Hamedov tashqi iqtisodiy faoliyatning nazariy, tashkiliy va huquqiy asoslarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Ularning O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari nomli ilmiy-uslubiy ishlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, boshqarish, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan [1].

J.J. Jalolov, I.A. Ahmedov va I.S. Hotamov tomonidan tayyorlangan Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari nomli o‘quv qo‘llanmada tashqi iqtisodiy faoliyatning shakllari, uni tashkil etish va boshqarish, oldi-sotdi shartnomalari, transport ta’minoti, sug‘urta hamda tashqi savdo hujjatlari kabi masalalar ko‘rib chiqilgan. Ushbu manba tashqi iqtisodiy faoliyatning amaliy mexanizmlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega [2].

A.M. Alimov, E.A. Mahmudov va N.X. Haydarovning Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar nomli darsligida jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, kapital harakati, xalqaro valyuta-moliya bozori hamda ilmiy-texnikaviy almashinuv masalalari yoritilgan. Mazkur ilmiy yondashuvlar tashqi iqtisodiy faoliyatning xalqaro iqtisodiy tizimdagi o‘rnini chuqurroq anglashga yordam beradi [3].

A.A. Isadjanov, M.X. Vohidova, I.P. Stesenko va Z.A. Qodirovalarning Xalqaro savdo nomli darsligida xalqaro savdo munosabatlari, ularning rivojlanish xususiyatlari va mamlakatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan eksport-import munosabatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi [4].

Q.A. Isayevning Xalqaro iqtisodiyot nomli darsligida globallashuv, xalqaro hamkorlik, jahon bozoriga integratsiyalashuv va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Muallifning yondashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi strategik ahamiyatini tushunishga xizmat qiladi [5].

Umuman olganda, mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili tashqi iqtisodiy faoliyatning xalqaro savdo, investitsiyaviy hamkorlik, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, texnologiyalar almashinuvi va iqtisodiy integratsiya kabi yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu asosda mazkur maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy mazmuni, tarkibiy qismlari va milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati kompleks yondashuv asosida o‘rganiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy mohiyati, asosiy yo‘nalishlari va milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini o‘rganishda tizimli yondashuv,

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali tashqi iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismlari, jumladan, eksport, import, xorijiy investitsiyalar, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi va texnologiyalar almashinuvi o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida xalqaro savdo munosabatlari, tashqi iqtisodiy faoliyat shakllari va ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri solishtirildi. Bu usul tashqi iqtisodiy faoliyatning turli yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Ilmiy abstraksiya usuli tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy iqtisodiy qonuniyatlarini aniqlash, uning mohiyatini nazariy jihatdan izohlash va muhim omillarni ajratib ko‘rsatishda qo‘llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, iqtisodiyotga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar, xalqaro savdo munosabatlariga doir ilmiy manbalar hamda O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligi tizimi bilan o‘zaro aloqalarini ta’minlovchi muhim iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy mazmuni milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi, xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishi, investitsiyalarni jalb etishi hamda zamonaviy texnologiyalar va tajribalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan tashqi iqtisodiy faoliyatni faqat eksport va import operatsiyalari bilan cheklab bo‘lmaydi. U xalqaro xizmatlar savdosi, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, moliyaviy munosabatlar, ilmiy-texnik hamkorlik va investitsiya faoliyatini ham qamrab oladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri tashqi savdo hisoblanadi. Eksport mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni xorijiy bozorlarga chiqarish orqali valyuta tushumlarini shakllantiradi, mahalliy korxonalar faoliyatini kengaytiradi va ishlab chiqarish hajmining ortishiga turtki beradi. Import esa ichki bozorda yetishmaydigan mahsulotlar, xomashyo, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash imkonini yaratadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish vositalari va texnologik uskunalar importi korxonalarning texnik darajasini oshirish, mehnat unumdorligini yaxshilash va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishini baholashda tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmi, savdo hamkorlari tarkibi hamda savdo balansidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish muhim hisoblanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 20,7 foizga yuqori bo‘lgan. Mazkur o‘sish O‘zbekistonning xalqaro

savdo aloqalari kengayib borayotganini va mamlakatning tashqi iqtisodiy faolligi ortayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2025-yil	2026-yil yanvar–avgust
Tashqi savdo aylanmasi	81,2 mlrd dollar	57,4 mlrd dollar
Eksport	33,8 mlrd dollar	22,9 mlrd dollar
Import	47,4 mlrd dollar	34,5 mlrd dollar
Tashqi savdo aylanmasining o‘sishi	20,7%	7,6%
Eksport o‘sishi	24,0%	–3,4%
Savdo balansi	18,5%	16,3%

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining sezilarli darajada o‘sishi eksport va import operatsiyalarining kengayishi bilan bog‘liq. Eksport hajmining 33,8 mlrd AQSH dollariga yetishi mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi ishtiroki ortib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, import hajmining 47,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etishi mamlakat iqtisodiyotida xorijiy mahsulotlar, xomashyo, texnika va texnologiyalarga bo‘lgan talab yuqoriligini ko‘rsatadi.

2025-yilda import eksportdan 13,6 mlrd AQSH dollariga ko‘p bo‘lgan. Bu holat tashqi savdo balansida manfiy saldoning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Biroq tashqi savdo balansidagi manfiy saldo har doim ham iqtisodiyot uchun salbiy holatni anglatmaydi. Agar import tarkibida ishlab chiqarish uskunalari, sanoat texnologiyalari va iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan resurslar katta ulushga ega bo‘lsa, bunday import kelgusida ishlab chiqarish hajmining oshishiga va eksport salohiyatining kengayishiga xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun import hajmini baholashda uning umumiy qiymati bilan bir qatorda tarkibi va iqtisodiyotga ta’sirini ham hisobga olish zarur.

2026-yilning yanvar–avgust oylaridagi ko‘rsatkichlar esa tashqi savdo tarkibida ayrim o‘zgarishlar yuz berayotganini ko‘rsatadi. Ushbu davrda tashqi savdo aylanmasi 57,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,6 foizga oshgan. Biroq eksport 3,4 foizga kamaygan, import esa 16,3 foizga o‘sgan. Bu holat eksport va import dinamikasida farq mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, importning eksportga nisbatan tezroq o‘sishi tashqi savdo balansiga bosimni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli eksport hajmini oshirish, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, 2026-yil yanvar–avgust oylarida oltin hisobga olinmagan tovar eksporti 11,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 28,7 foizga o‘sgan. Bu ko‘rsatkich eksportning ayrim tarkibiy yo‘nalishlarida ijobiy o‘zgarishlar mavjudligini anglatadi. Ya’ni eksportning umumiy dinamikasini tahlil qilishda alohida mahsulot guruhlari va eksport tarkibidagi o‘zgarishlarni ham hisobga olish lozim. Bunday yondashuv mamlakat eksport salohiyatini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning yana bir muhim jihati savdo hamkorlari geografiyasining kengayishi bilan bog‘liq. 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoy 21,2 foiz, Rossiya 16 foiz, Qozog‘iston 6,1 foiz, Turkiya 3,7 foiz va Koreya Respublikasi 2,1 foiz ulushga ega bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakat tashqi savdo aloqalarida mazkur davlatlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

2-jadval

O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

Hamkor davlatlar	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi
Xitoy	21,2%
Rossiya	16,0%
Qozog‘iston	6,1%
Turkiya	3,7%
Koreya Respublikasi	2,1%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoy va Rossiyaning ulushi nisbatan yuqori. Bu holat mazkur davlatlar bilan shakllangan savdo-iqtisodiy aloqalarning muhimligini ko‘rsatadi. Biroq tashqi savdo aloqalarining cheklangan miqdordagi hamkor davlatlarda yuqori darajada jamlanishi ayrim iqtisodiy xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, hamkor davlatlar iqtisodiyotida yuz beradigan o‘zgarishlar, transport-logistika muammolari yoki xalqaro bozorlardagi narx tebranishlari O‘zbekiston tashqi savdo ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud. Shu sababli yangi savdo bozorlarini o‘zlashtirish, mavjud hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash va savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligi faqat tovarlar savdosi bilan emas, balki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro ishlab chiqarish hamkorligini rivojlantirish bilan ham belgilanadi. Xorijiy investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv tajribasini o‘zlashtirish va yangi ish o‘rinlarini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan qo‘shma korxonalar mahalliy korxonalarning xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga qo‘shilishiga yordam beradi. Bu esa mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, xalqaro xizmatlar savdosi ham tashqi iqtisodiy faoliyatning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Transport, turizm, axborot texnologiyalari, ta’lim va konsalting xizmatlarini xorijiy bozorlarga taklif etish mamlakat eksport daromadlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida xizmatlarni masofadan turib eksport qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu yo‘nalish katta hajmdagi moddiy resurslarni talab qilmasdan xalqaro bozorlarda ishtirok etish imkonini yaratadi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida tashqi iqtisodiy faoliyatning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda umumlashtirish mumkin:

• Iqtisodiy o‘sishga ta’siri: eksport hajmining kengayishi ishlab chiqarish faoliyatini rag‘batlantiradi, korxonalar daromadlarini oshiradi va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga yordam beradi.

• Investitsiyaviy rivojlanishga ta’siri: xorijiy kapital va texnologiyalarning kirib kelishi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

• Raqobat muhitiga ta’siri: xalqaro bozorlarda ishtirok etish mahalliy korxonalarni mahsulot sifati, narx va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilashga undaydi.

• Texnologik rivojlanishga ta’siri: xalqaro hamkorlik orqali zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va boshqaruv tajribasi o‘zlashtiriladi.

• Tashqi iqtisodiy barqarorlikka ta’siri: savdo hamkorlari va eksport mahsulotlari tarkibini diversifikatsiya qilish tashqi iqtisodiy xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat hajmi kengayib borayotganini, shu bilan birga, eksport va import o‘rtasidagi nisbat, savdo hamkorlari tarkibi hamda eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish uchun eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish va texnologik modernizatsiyaga yo‘naltirish hamda yangi xalqaro bozorlarni o‘zlashtirish zarur. Ushbu yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligidagi mavqeyini mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakat milliy iqtisodiyotining jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvi, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining jadallashuvi va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyat faqatgina tovarlarni eksport va import qilish bilan cheklanmay, balki xizmatlar savdosi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnik hamkorlik hamda moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni ham qamrab oladi. Shu sababli tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozordagi mavqeyini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning tashqi savdo ko‘rsatkichlari tahlili mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalari kengayib borayotganini ko‘rsatadi. 2025-yilda tashqi savdo aylanmasining 81,2 mlrd AQSH dollariga yetgani eksport va import operatsiyalari hajmi ortayotganidan dalolat beradi. Biroq eksport va import o‘rtasidagi tafovut tashqi savdo balansini yaxshilash, mahalliy mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirish va import tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini ko‘paytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda import hajmining ortishini bir

tomonlama salbiy holat sifatida baholash to‘g‘ri emas, chunki ishlab chiqarish uskunalari, zamonaviy texnologiyalar va sanoat uchun zarur xomashyo importi iqtisodiy modernizatsiya jarayonlariga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Eksport tarkibini diversifikatsiya qilish. Xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar eksportiga qaramlikni kamaytirib, tayyor sanoat mahsulotlari, qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tovarlar eksportini kengaytirish lozim. Bu eksportdan olinadigan daromadni oshirish va milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozordagi mavqeyini mustahkamlashga yordam beradi.

2. Yangi tashqi bozorlarni o‘zlashtirish. An’anaviy savdo hamkorlari bilan aloqalarni saqlab qolgan holda, yangi mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Savdo geografiyasining diversifikatsiyalanishi tashqi bozorlardagi iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq xatarlarni kamaytiradi.

3. Mahalliy korxonalarning eksport salohiyatini oshirish. Korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, sertifikatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish va eksport faoliyatiga oid axborot xizmatlarini rivojlantirish muhimdir. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqishini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratish lozim.

4. Xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish. Xorijiy investitsiyalarni, avvalo, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Bunda investitsiyalarning faqat hajmiga emas, balki ularning iqtisodiyotga olib kiradigan texnologik va ishlab chiqarish samaradorligiga ham e’tibor berish kerak.

Umuman olganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda eksport hajmini oshirish bilan bir qatorda uning tarkibiy sifatini yaxshilash, importdan samarali foydalanish, investitsiyaviy hamkorlikni chuqurlashtirish va xalqaro bozorlarda barqaror iqtisodiy aloqalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Taklif etilgan yo‘nalishlarni izchil amalga oshirish O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Krugman, P. R., Obstfeld, M., Melitz, M. J. International Economics: Theory and Policy. 11th ed. Pearson Education, 2018.

2. Salvatore, D. International Economics. 13th ed. Wiley, 2020.

3. World Trade Organization. World Trade Report 2024: Trade and Inclusiveness: How to Make Trade Work for All. Geneva: WTO, 2024. Rasmiy hisobot.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 77-II-sonli “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar. 2025-yil yakunlari. Rasmiy statistik ma’lumotlar.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi, 2026-yil yanvar–avgust. Rasmiy statistik ma’lumotlar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Tashqi savdo va investitsiya faoliyatiga oid rasmiy axborot materiallari. Vazirlikning rasmiy veb-sayti.

8. Jahon savdo tashkiloti (WTO). Xalqaro savdo, savdo siyosati va global iqtisodiy hamkorlikka oid rasmiy materiallar. WTO rasmiy veb-sayti.

9. Jahon banki. Xalqaro savdo, iqtisodiy integratsiya va mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga oid tahliliy ma’lumotlar. Jahon banki rasmiy veb-sayti.

10. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF). Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, to‘lov balansi va valyuta siyosatiga oid tahliliy materiallar. XVJ rasmiy veb-sayti.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy